



## BEPUSHTLIK: SABAB VA YECHIMLARI (ICHKILIKBOZLIK, KASHANDALIK VA FARZANDSIZLIK O'ZARO BOG'LIQMI)

**Bozorova Mohidil Yo'ldoshovna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. 1-Dovolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Bepushtlik, shubxasiz, ayollar uchun haqiqiy baxtsizlik hisoblanadi. Negaki ona bo'lisl ertami-kech har bir ayolda paydo bo'ladi. Ayollar bepushtlik sabablari xilma-xil, lekin mazkur muammoning keng tarqalgan sabablaridan- hayz sikli buzilishi, turli irsiy kasalliklar, turli zararli odatlar (kashandalik, ichkilikbozlik) hisoblanadi. Ayoldagi bepushtlik-jinsiy balog'atga yetib, turmushda bir yil davomida muntazam aloqada bo'lib, tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan faol spermatoizidlar kirib turishiga qaramay, bola ko'tarmaslik.*

**Kalit so'zlar:** *bepushtlik, hayz sikli, jinsiy gormonlar, spermatozoid, tuxumdon, ovulyatsiya, bachadon, yetilgan tuxum hujayra.*

Dolzarbli: Bepushtlik tashxisi, shuningdek xomiladorlik doimo bola tushishi bilan tugayverganida ham qo'yiladi. Bepusht er-xotinlik 10-20 % holatlarda uchraydi. Ayollardagi bepushtlik homiladorlikni o'tkazolmaslik bilan adashtirib qo'ymaslik kerak. Bunda yetilgan tuxum hujayra, spermatoizid bilan muvaffaqiyatli urug'lanadi, lekin homiladorlik embriogenez bosqichida bola tushish yoki abort bilan nixoyasiga yetadi.

Maqsad: Bepushtlikka olib keluvchi omillarni aniqlash, vaqtida davo choralarini ko'rish, har bir ayolni onalik baxtiga erishishiga yordam berishga qaratilgan.

Ayolning turmush o'rtog'ida laboratoriya usullari orqali yashay olmaydigan, nimjon spermatozoidlar aniqlansa yoki ular umuman mavjud bo'limganda ayolga bepushtlik tashxisi qo'yilmaydi.

Mazkur muammo bugungi kunda bir necha asr oldingiga qaraganda jiddiyroq tus oldi. Jinsiy inqilob jiddiy mas'ulyatni his qilmoqda. Negaki u tufayli yuqumli kasalliklar keng tarqalmoqda. Yoshlar farzand ko'rishni xoxlashmayapdi, homiladorlikni ortga surish borgan sari ortib bormoqda. Agar bepusht er-xotinlarni 100% deb oladigan bo'lsak, 33,3%i erkaklarda, yana 33,3%i ayollarda qayd etilmoqda, qolgan holatlarda er-xotinning ikkalasiga ham bepushtlik tashxisi qo'yilmoqda.

Bepushtlikka jinsiy tizim rivojlanishidagi nuqsonlar, jinsiy gormonlar funksiyasi buzilishi, kuchli intoksikatsiya hamda organizmdagi umumiylashtirishlari, shuningdek, ruhiy va nevrologik xastaliklar sabab bo'lishi mumkin. Bepushtlik alohida kasalliklar guruhiga kirmaydi, u hamisha organizmdagi turli dardlar oqibatida kelib chiqadi. Ayollar bepushtligining asosiy sababchisi yallig'lanuvchi xastaliklar hisoblanadi.

Ayollar bepushtligining eng keng tarqalgan sabablaridan:

-tuxumdonlardan tuxum qo'yilishiga ta'sir qiladigan ovulyatsiya kasalliklari bo'lsa



-hiperprolaktinemiya bo'lsa-bu ona sutini ishlab chiqishni rag'batlantiruvchi gormonal kasalliklar

-qalqonsimon gormonlar ko'p yoki kam ishlab chiqarilsa

-ortiqcha sport bilan shug'ullansa

-saraton kasalligi bo'lsa

-bachadon miomasi bo'lsa

-erta menopauz deb ataladigan bosh tuxumdon yetishmovchiligi mavjud bo'lsa, tuxumdonlar ishlamay qoladi va hayz sikli 40 yoshdan oldin tugaydi.

Bepushtlikka shuningdek ichkilikbozlik, kashandalik ham olib keladi. Barcha alkogolli mahsulotlar tarkibida albatta etil spirit bo'ladi. Odam organizmiga tushgach, etil spirit oshqozon-ichak devorlari orqali so'rildi, tezda jigarga yetib boradi hamda qonda paydo bo'ladi. Shuningdek, ayol jinsiy hujayralari erkaklarnikiga qaraganda spirtli ichimlikka o'ta sezuvchan bo'ladi, hayotiy sikli esa ayolning butun reproduktiv hayoti bilan barobar. Etanol ta'sirida tuxum hujayralarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sabab ayolning aqliy va jismoniy nuqsonli bolani dunyoga keltirishi va bepushtlik ehtimoli yuqori bo'ladi.

Chekuvchi ayollarda ham bepushtlik holatlari ko'p uchraydi. Chekuvchi ayol organizmi yetilmagan tuxum hujayralarni ancha kam ishlab chiqaradi. Kashanda ayol chekmaydigan ayolga qaraganda homilador bo'lishga ikki baravar ko'proq qiynaladi. Bachadon nayi bo'shlig'iga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bachadon nayi toksik va kimyoviy moddalarga nihoyatda sezuvchan mayda tukli epiteliylar bilan qoplangan. Bitta sigaret chekkan paytda ayol organizmiga bir necha minglab teratogen va zaharli xususiyatga ega moddalar tushadi. Mazkur moddalar ta'siri epiteliy tuklari halokatiga olib keladi. Bu esa ortidan urug'langan tuxum hujayrani bachadon bo'shlig'iga tushish imkoniyatidan mahrum qiladi. Natijada patologik homiladorlik kelib chiqishi mumkin (bachadondan tashqari homiladorlik). Oqibatda ayollar bepushtligiga yo'l ochiladi. Mabodo chekuvchi ayol homiladorlikka erishgan taqdirda ham, unda bola tushish xavfi ancha yuqori bo'ladi.

Bepushtlikni davolashda, birinchi navbatda, bepushtlikning sababi bo'lgan omillarni eng yaxshi tarzda aniqlash kerak. Yaxshi davolash usullari yaxshi tashxis orqali amalga oshiriladi.

Ovulasyon davolash: Barcha tekshiruvlardan keyin ayollarda bepushtlik aniqlansa, o'tkaziladi. Davolashning maqsadi ayolda har oy tuxum hujayra yetilishiga yordam berishdir.

EKO davolash: Agar ayolning bachadonidagi har ikkala bachadon nayi bloklangan yoki shikastlangan bo'lsa, homiladorlik bo'lish ehtimoli deyarli yo'q. Bunda EKO ni qo'llash samaraliroqdir. Klinikaga tashrif buyurish, testlar, qo'shimcha protseduralarni o'z ichiga olgan EKO protsedurasiga tayyorgarlik vaqt va mohirona rejorashtirishni talab qiladi. Ko'pgina juftliklar mashg'ulotlarni kasbiy mas'uliyat, oiladagi atmosferaga g'amxo'rlik qilish bilan birlashtirilganini hisobga olsak, bu davrda ayolning xotirjam



bo'lishi juda qiyin. Shu sabab EKOni rejalashtirish va tayyorlash paytida, shuningdek, embrionni ko'chirishdan keyin yaqinlarning yordamiga murojaat qilish muhimdir.

Xulosa: Bepushtlikni oldini olish uchun qizlarni yoshligidan sog'ligiga etibor berish, tez-tez shifokor ko'riganidan o'tkazib turish zarur. Turli zararli odatlardan cheklanish lozim. Shu bois har bir ayol har safar qo'liga sigaret yoki spirtli ichimlik olganda onalik baxti naqadar ahamiyatlari va totli ekanini o'ylab ko'rmog'i lozim. 21-asrda "bepushtlik" so'nggi hukm emas. Deyarli har bir juftlikda homilador bo'lish va sog'lom bola tug'ish imkoniyati mavjud.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1."Ginekologik kasalliklar" Nargiza Magzumova 2020

2."Reproduktiv Ginekologiya" Ikhtiyorova Gulchehra Akmalovna, Dustova Nigora Kahramonovna, Aslonova Mahliyo Juraboyevna

3.Oliy toifali shifokor-ginekolog Shahzoda Bahodirovani "Tashxis" jurnaliga bergen intervyusi

4."Akusherlik va Ginekologiya" Kattaxodjaeva M.X 2021

4.[https://uz.m.wikipedia.org>wiki](https://uz.m.wikipedia.org/wiki)

5.[https://bahceci.com>](https://bahceci.com)

6.[https://bepushtlik.uz>](https://bepushtlik.uz)

7.[https://shifo.uz>article>](https://shifo.uz/article)